

IJTIMOYIY TARMOQLARDA QO‘LLANILADIGAN DEYKTIK SO‘ZLARNING AYRIM XUSUSIYATLARI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7336796>

Muxamedjanova Shahnoza

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
“Xitoy filologiyasi” kafedrasida o‘qituvchisi
shahnozochka82@mail.ru

Annotasiya. Ushbu maqolaning maqsadi ijtimoiy muloqonda internet-leksikasining eng muhim xususiyatlarini internet foydalanuvchilari tomonidan qo‘llaniladigan deyktik so‘zlar misolida ko‘rib chiqishdan iborat. Internet tili (网络语言 wǎngluo yǔyán) alohida ko‘rinishdagi til emas, u zamonaviy xitoy tilining ba‘zi dialektlarining leksik tarkibini qabul qilib, o‘z ichida birlashtiradi. U deyarli barcha mavjud lingvistik ma‘lumotlardan foydalanadi: fonetik tuzilish va leksik tarkibidan tilning grammatik tuzilishigacha, venyan tili va shevalaridan tortib, to putunxua va chet tillaridan o‘zlashgan so‘zlargacha qamrab oladi. Bularning barchasi internet-tilining “qurilish materiali” hisoblanadi.

Tayanch so‘z va iboralar: ijtimoiy tarmoq, deyktik so‘zlar, internet leksika, olmoshlar, harfli so‘lar.

Аннотация. Цель данной статьи - рассмотреть важнейшие особенности интернет-лексики в социальной коммуникации на примере дейктических слов, используемых интернет-пользователями. Интернет-язык (网络语言 wǎngluòyǔyán) не является отдельным языком, он принимает лексический состав некоторых диалектов современного китайского языка и объединяет его. В нем используется практически вся доступная лингвистическая информация: от фонетического строя и лексического состава до грамматического строя языка, от вэньянского языка и диалектов до слов, заимствованных из путунхуа и иностранных языков.

Основные слова и словосочетания: социальная сеть, дейктические слова, интернет-лексикон, местоимения, слова-буквы.

Annotation. The purpose of this article is to consider the most important features of the Internet lexicon in social communication on the example of deictic words used by Internet users. The Internet language (网络语言 wǎngluòyǔyán) is not a separate language, it accepts the lexical structure of some dialects of the modern Chinese language and combines it within itself. It uses almost all available linguistic information: from phonetic structure and lexical structure to the grammatical structure of the language, from Wenyan language and dialects to words borrowed from Putunghua and foreign languages. All these are the "building blocks" of the Internet language.

Keywords: social network, deictic words, internet lexicon, pronouns, letter words.

Ma‘lumki, tilshunoslikda deysis hodisasi universal hisoblanib, deysis so‘zi “ko‘rsatish” ma‘nosini anglatadi. Deyktik imo-ishoralar kommunikatsiyada verbal vositalar bilan birga kelib, narsa, shaxs, zamon yoki makonni ko‘rsatib keladi. Deyktik imo-ishoralarni to‘g‘ri qo‘llash, so‘z va iboralarning ma‘nosini tushunish uchun kontekstual axborot zarurdir.

Tilshunoslik va psixologiyada imo-ishoralar turli olimlar tomonidan bahsli holda o‘rganilib kelinmoqda. Shuningdek, imo-ishoralarning bir nechta turlari bo‘lib, ularramziy, deyktik, ikonik, metaforik va ritmik kabilardir. Ushbu imo-ishoralar ichidadeyktik imo-ishoralar alohida ahamiyatga ega. Deyksis hodisasi universal bo‘lib, deyktikimo-ishoralar uning bir qirrasidir. Deyktik imo-

ishoralar nutqda verbal vositalar bilan qo‘llaniladigan, ma‘lum narsa, shaxs, joyni ko‘rsatib turuvchi harakatlardir.

Internet-leksika sohasidagi tadqiqotlar – zamonaviy til rivojlanishining yangi yo‘nalishlarini aniqlashga, yangi va mavjud so‘zlarning ma‘nolariga qaratilgan muhim va dolzarb vazifadir. Xuey Tyangan yozishicha: “Ko‘p sonli yangi Internet-so‘zlarining paydo bo‘lishi bizga qulay imkoniyat, zamonaviy xitoy tilining leksik tizimini turli nuqtai nazardan har tomonlama o‘rganish imkoniyatini beradi; shu bilan birga, Internet leksikasi bu tizim haqidagi tushunchamizni murakkablashtiradi.

Biz bu haqiqatni e‘tiborsiz qoldira olmaymiz yoki uni inkor eta olmaymiz, biz ushbu lug‘atni faol ravishda tartibga solishimiz, Internet-tilini tushunish va o‘rganishimizda mavjud bo‘lgan cheklovlarni olib tashlash va xitoy tilining leksik tarkibini takomillashtirish uchun qoidalarni izlashimiz kerak”¹.

Deyktik so‘zlar – “proverblar, pronominalar, proad‘ektivlar, proadverblar yoki deyktik (ishora qiluvchi) vazifasiga ega, yoki ular nutqning o‘zaro bog‘liqligini ta‘minlaydi: o‘zaro bog‘liq nutqda to‘liq ma‘noga ega so‘zlarni almashtirib, ular referent (xabarda ko‘rib chiqilayotgan muayyan predmet)ga qayta ishora qilish maqsadiga xizmat qiladi”² [2, c. 43].

Internet-tilining deyktik olmoshlari odatda uch turga bo‘linadi: 1. Birinchi shaxs birlik olmoshlari, ikkinchi shaxs, ya‘ni so‘zlovchini nomlaydigan olmoshlar bundan mustasno. 2. Ikkinchi shaxs, ya‘ni so‘zlovchini nomlaydigan olmoshlar. 3. Gapiruvchi va tinglovchini o‘z ichiga olmaydigan uchinchi shaxs olmoshlari. Normativ xitoy tilidan farqli ravishda Internet-tilidagi deyktik olmoshlar, asosan, birinchi ikki turni tashkil qiladi.

1) Birinchi shaxs birlik olmoshlari

Internet-tilida «偶» ōu (men) eng keng tarqalgan olmosh hisoblanadi. Ammo bu olmosh internet-tilida paydo bo‘lmagan, u guruhidagi shevalarga taalluqli bo‘lib, dialektizmlar qatoriga kiradi.³ Internet foydalanuvchilarning geografik mansubligi keng bo‘lgani uchun dialoglarda ko‘pincha turli dialektizmlarni kuzatish mumkin, ularning ba‘zilari asta-sekin umumiy iste‘molga kirib, dialektik tusini yo‘qotib boradi. Aynan shu yo‘lni «偶» ōu olmoshi ham bosib o‘tgan.

Masalan, «偶爱偶家» ōu ai ōu jiā (men o‘z oilamni sevaman). Internet-tilida yangi so‘zlarning tarqalishi va shakllanishining asosiy sababi ularning g‘ayrioddiylik, jozibadorligi va ma‘lum darajada sirliligi bilan bog‘liqdir. Bu yerda so‘zlovchining jinsi ham muhim rol o‘ynaydi, shuning uchun foydalanuvchilarni jinsi bo‘yicha farqlovchi so‘zlar yoki olmoshlardan tobora ko‘proq foydalanilmoqda. «偶» ōu olmoshi juda mashhur bo‘ldi, chunki u xitoyliklar nuqtai nazarida nafaqat “ajoyib, qiziq” hisoblanib, odatda qizlar tomonidan qo‘llaniladi va tannozlik (ishvagarlik) alomatlarini ifodalaydi. Internet-tilida «偶» ōu olmoshidan tashqari, «阿拉» āla, «挖» wā, «俺» ǎn olmoshlari ham dialektizmlardan kelib chiqib, hozirda keng ko‘llaniladi va «men, mening» ma‘nolarini anglatadi. «阿拉» olmoshi U dialekt guruhining shanxay shevasiga⁴, «挖» wā olmoshi – Min sheva guruhining janubiy min shevasiga⁵, «俺» ǎn olmoshi esa – guanxua shevalar guruhining shimoliy-sharqiy shevasiga mansub⁶. Масалан:

阿拉上海人 āla shanghǎi ren – 我是上海人 wǒ shì shanghǎi ren

¹Хуэй Тяньган. Обзор тенденций в словообразовании Интернет-лексики //Вестник СПбГУ. Серия 13. 2010. №2. С. 213

²Нелюбин, Л.Л. Толковый переводоведческий словарь. 3-е издание, переработанное / Л.Л. Нелюбин. М.: Флинта: Наука 2003. С 43

³许宝华. 汉语方言大词典/许宝华, 宫田一郎. – 北京: 中华书局, 1999. 55-56 页.

⁴许宝华. 汉语方言大词典/许宝华, 宫田一郎. – 北京: 中华书局, 1999. 2990 页.

⁵张云辉. 网络语言语法与语用研究. – 上海: 学林出版社, 2010. 90页.

⁶许宝华. 汉语方言大词典/许宝华, 宫田一郎. – 北京: 中华书局, 1999. 4917 页.

(men shanxaylikman)

街系挖歛喀 jiē xi wā āi kā – 这是我的脚 zhe shi wǒ de jiǎo (bu mening oyog'im)

俺们那嘎达 ǎnmen na gā da – 我们那个地方 wǒmen nage difang

(bizda u erda...)

Birinchi shaxs birlik olmoshini “5” raqami yordamida ham ifodalash mumkin, chunki uning talaffuzi «我» soʻzning talaffuzi bilan bir xil.

Masalan, «8 要吓 5» yozuvi «不要吓我» búyào xià wǒ (meni qoʻrqitmag) maʼnosiga ega.

Ieroglif oʻrniga raqamdan foydalanish suhbatda tezlik, darhollikka intilish bilan bogʻliqdir.

2) Ikkinchi shaxs birlik olmoshi

«Sen, sening, senga» olmoshlarini ifodalovchi bir qator soʻzlar mavjud, masalan, «泥» ni, «你丫» nǐ yā, «卿» qīng, «依» yī, «嫩» nèn va boshqalar.

Internet-tilida standart boʻlgan «你» nǐ olmoshining oʻrniga «泥» ni olmoshining ishlatilishi, ehtimol, klaviaturada ierogliflarni kiritishning oʻziga xos xususiyatlari tufayli paydo boʻlgan. Aksariyat foydalanuvchilar yuqori tezlikda xabar almashishga intilgani sababli, ular baʼzida imloning toʻgʻriligiga rioya qilmaydilar va notoʻgʻri kiritilgan ierogliflarni tuzatmaydilar, natijada, «泥» ni olmoshi asta-sekin «你» nǐ oʻrniga ishlatilishi odatga aylandi. «你丫» nǐ yā soʻzi asosan yoshlar tomonidan koʻpincha kimdir bilan tortishuv yoki janjal boʻlayotgan vaziyatlarda koʻllaniladi. «卿» qīng soʻzi qadimgi xitoy tilidan kelib chiqib, odatda, masalan, er va xotin oʻrtasidagi yoki doʻstlar orasidagi suhbatda takallufsizlikni bildiradi⁷. Internetda bu soʻz koʻpincha qiz bilan muloqot qilishda yigit tomonidan ishlatiladi. «依» yī soʻziU guruhining shevalariga mansubdir. Yumshoq, muloyim muomalani ifodalovchi bu soʻz Internetda, odatda, qizlar tomonidan ishlatiladi⁸.

“嫩” nèn soʻzi guanxua shevalari guruhiga mansub Sindao shevasidan kirib kelgan 4, c. 6965. Sindao shevasi Sindao shahrida va Shandong provinsiyasi (viloyati)ga yaqin joylashgan hududlarda tarqalgan boʻlib, sinonimlarning koʻpligi, shuningdek, chet tillaridan oʻzlashagan soʻzlar va oʻrta asrlardan saqlanib qolgan leksikasi bilan ajralib turadi. Internet-tilida ishlatiladigan ibora, ifodalar koʻpincha kundalik hayotda ishlatiladigan iboralardan katta farq qiladi. Masalan, “斑竹” bānzhu va “板猪” bǎnzū soʻzlari «版主 bǎnzǔ» (moderator) soʻzi oʻrniga ishlatiladi. Bunday almashuv gomofoniya asosida sodir boʻladi. Submoderator «板斧» bǎnfǔ nomiga ega boʻladi, «板油» bǎnyou soʻzi esa «yogʻ (charvi)» maʼnosida emas, balki «版友» bǎnyǒu soʻzining sinonimi sifatida forumda izoh (sharh) qoldiradigan odamlarni anglatadi. Forumda topik yaratgan odam «楼主» lóuzhǔ (topikstarter) yoki «顶楼» dǐnglǒu deb ataladi. Birinchi, ikkinchi, uchinchi yoki toʻrtinchi boʻlib sharhlar qoldirgan foydalanuvchilar tegishli ravishda «沙发» shāfā (divan), «椅子» yǐzi (stul), «板凳» bǎndēng (kursi, oʻrindiqli), «地板» dìbǎn (parket) degan nomlarni olishadi. Sendan oldin forumda sharh qoldirgan odamni «楼上» lóushàng (oldingi posting), sendan keyingisini – «楼下» lóuxia (keyingi posting), undan keyin hech qanday izohlar qoldirilmaydigan foydalanuvchi «底楼» dǐlǒu deb ataladi. Bu nomlarni barchasi bevosita «楼» lóu (uy, bino) soʻzi bilan bogʻliq.

⁷URL: <http://bkrs.info/>

⁸张云辉. 网络语言语法与语用研究. – 上海: 学林出版社, 2010. 91 页.

Internetdagi murojaatlar ham unga sarflangan vaqtga qarab farqlanadi. Masalan, «大侠 dajia» (qahramon), «大虾» da xiā (katta qisqichbaqa (krevetka)) va «老鸟» lǎoniǎo (qari qush) soʻzlari – bu ilgʻor foydalanuvchining nomlari. Ularning antonimlari boʻlgan «菜鸟» cainiǎo (yosh qush), «小虾 xiǎoxiā» (qisqichbaqa (krevetka)) «游民» yóumín (daydi) soʻzlari Internetda yangi odam maʼnosini bildiradi.

«水手» shuǐshǒu (dengizchi) soʻzi Internetda «flud» tarqatayotgan, yaʼni hech qanday maʼlumotga ega boʻlmagan xabarlarini qoldiradigan odamni ifodalaydi. Uning sinonimlari sifatida «水桶» shuǐtǒng (chelak), «水鬼» shuǐguǐ (suvli), «水仙» shuǐxiān (suvli), «水王» shuǐwang (suv xudosi), «水母» shuǐmǔ (suvlar maʼbudasi), «水手» shuǐshǒu (dengizchi) soʻzlari ishlatiladi.

Bu soʻzlarning barchasi koʻp miqdordagi keraksiz boʻlgan xabarlarini qoldiradigan odamni anglatadi («水母» shuǐmǔ soʻzi fluder qizga taalluqli). «潜水员» qiǎnshuǐyuán (gʻavvos, suv tagiga shoʻnguvchi) soʻzi forumlardagi chatlarni koʻrib chiqib, oʻqib, ularga hech qanday oʻzining izoh, sharhlarini qoldirmaydigan odamni bildiradi.

Internet-tilida koʻpincha suhbatdoshga nisbatan muloyim, mehrlı murojaatlardan foydalanishadi. Masalan, «宝贝» bǎobei (aziz, sevimli, suyuqli), «宝宝» bǎobǎo (kichkintoy), «亲耐» qīnǎi (sevimli, suyuqli). Kundalik hayotda bu soʻzlar odatda faqat sevishganlar tomonidan qoʻllaniladi. Bunday murojaat suhbatdoshga yaqinlashish, u bilan muloqotni iliqroq va doʻstona qilish uchun ishlatiladi. Koʻpincha, bunday murojaatlardan kimnidir masxara yoki mazah qilish uchun foydalaniladi.

«亲» qīn soʻzi juda keng tarqalgan murojaat boʻlib, «亲爱» qīnʼai (aziz; sevimli, suyuqli) soʻzining qisqartirilishi orqali paydo boʻlgan. Koʻplikni ifodalash uchun, «亲» morfemasiga «们» men morfemasi qoʻshiladi. «亲» qīn soʻzi, birinchi navbatda, Xitoyning eng mashhur “Taobao” onlayn-doʻkoni tufayli keng tarqaldi, bu erda sotuvchilar deyarli har doim xaridor bilan «亲» qīn soʻzi bilan muloqot qilishni boshlaydilar, bu hatto koʻpgina hazil-mutoyibalarga ham aylangan. Masalan:

A: 我成亲了。Wǒ chéngqīn le. Men turmushga chiqdim.

V: 恭喜恭喜! 能说说细节吗? Gōngxǐ gōngxǐ! Neng shuō shuō xìjīe ma? Tabrikliman! Batafsilroq aytib bera olasanmi?

A: 我注册了淘宝, 就成亲了。Wǒ zhuce le taobao, jiu chéngqīn le. “Taobao” saytida roʻyxatdan oʻtishim bilanoq, men darhol “sevimli”ga aylandim.

Xitoy tilining oʻziga xos xususiyatlarini bilmasdan turib, bu xazilni tushunish juda qiyin. Gap shundaki, «成亲» chéngqīn birikmasi ikkita maʼnoga ega boʻlishi mumkin: 1. Turmuga chiqmoq, uylanmoq. 2. Sevimli boʻlmoq, suyuqligga aylanmoq. Dialogning “A” ishtirokchisi “Taobao” roʻyxatidan oʻtganidan keyin hamma uni “sevimli” deb atashni boshladi, deb tushunadi. Internet foydalanuvchilari koʻpincha murojaat qilish yoki boshqa odamga ism berish uchun harfli soʻzlaridan ham foydalanadilar.

Eng keng tarqalgan harfli soʻzlardan GG (哥哥 gēge – aka), JJ (姐姐 jiějie – opa), DD (弟弟 didi – uka), MM (妹妹 mèimei – singil) kabi soʻzlar hisoblanadi. Farqi shundaki, bu soʻzlar

qarindoshlik munosabatlarni emas, balki faqat qizning yigitga va aksincha, yigitning qizga murojaat qilishi uchun ishlatiladi. Shu bilan birga, «妹妹» meimei soʻzini ifodalash uchun boshqa bir yozilish mavjud – «美眉» měimei. Koʻplikni ifodalash uchun MM soʻziga «s» harfi qoʻshiladi – MMs. Deytik boʻlgan harfli soʻzlardan bir necha misol keltirish mumkin: PLMM – 漂亮美眉 piaoliang měimei (goʻzal), LG – 老公 lǎogong (er), LP – 老婆 lǎopo (xotin), SG -«帅哥» shuaigē (yoqimtoy, kelishgan), 小 P 孩 xiǎo R hai -«小屁孩» xiǎopihai (yosh yigit), BB – baby (kichkintoy), XDJM – «兄弟姐妹» xiōngdijiěmei (aka-ukalar va opa-singillar).

Harfli deytkik soʻzlar orasida salbiy konnotasiyaga ega soʻzlar ham uchraydi, masalan, BD – 笨蛋 bendan (ahmoq, tentak), JR -«贱人» jianren (ablah, yaramas, pastkash) va boshqalar.

Xitoylik Internet foydalanuvchilari koʻpincha ingliz tilidagi deytkik soʻzlarni asl tilda ishlatilganidek yozadilar, masalan: boyfriend (yigit, sevimli, suyuqli), girlfriend (qiz, sevimli, suyuqli), baby (kichkintoy, sevimli, suyuqli).

Shunday qilib, internet foydalanuvchilari meʼyoriy tildan farq qiluvchi omofonlar, harfli soʻzlar yoki dialektizmlar orqali ifodalangan deytkik, shuningdek, ingliz tilidan assimilyasiyaga uchramagan oʻzlashtirilgan soʻzlardan foydalanishini koʻrish mumkin.

Ushbu turdagi leksikadan Internetda foydalanish nafaqat deytkik soʻzlar uchun xosdir, balki bu xususiyatlar forumlarda, chatlarda va ijtimoiy tarmoqlarda Internet foydalanuvchilari tomonidan ishlatiladigan boshqa leksikada ham namoyon boʻladi.

REFERENCES

1. Bolishoy kitaysko-russkiy slovari // 大 BKRS [Elektronniy resurs]. URL: <http://bkrs.info/> (murojaat qilish sanasi: 15.02.2014 g.).
2. Nelyubin, L.L. Tolkoviy perevodovedcheskiy slovari. 3-e izdanie, pere-rabotannoe / L.L. Nelyubin. M.: Flinta: Nauka 2003. 320 s.
3. Xuey Tyanigan. Obzor tendensiy v slovoobrazovanii Internet-leksiki // Vestnik SPbGU. Seriya 13. 2010. №2. S. 202-213.
4. 许宝华. 汉语方言大词典 /许宝华, 宫田一郎. – 北京: 中华书局, 1999. 7892 页. Syuy Baoxua, Guntyani Ilan. Bolishoy slovari dialektov kitayskogo yazika. Pekin. Izd-vo: Chjunxua shuszyuy, 1999 g. 7892 s.
5. 张云辉. 网络语言语法与语用研究. – 上海: 学林出版社, 2010. 257 页. ChjanYunixuey. Issledovanie grammatiki i pragmatiki Internet-yazika. Shanxay. Izd-vo: Syuelini, 2010. 257 s.
6. Akmalovna, S. L. (2020). Attribution model of composition in modern Chinese (On the example of medical terms). *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(4), 3662-3669.
7. Anvarovna, N. S. (2017). THE ISSUE OF LEXICAL COMPETENCE FORMATION IN THE PROCESS OF TEACHING CHINESE LANGUAGE. *ББК 66.4 (5 Kum) A 251*, 143.
8. Yusupova H. On the modern word formation methods in Chinese. *Asian journal of multidimensional research*. Vol,9.Issue 12. 2020 ISSN 2278-4853 (OAK)
9. Дана, К. А. (2020). ВЛИЯНИЕ ФИЛОСОФИИ УСИН НА ЭТИМОЛОГИЮ И СЕМАНТИКУ КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА (НА ПРИМЕРЕ ОТДЕЛЬНЫХ ГРУПП СЛОВ). In *Россия-Китай: история и культура* (pp. 35-40).
10. НАЗИРОВА, Ш. М. (2016). ТЕОРИЯ ФОРМАЛЬНОЙ И ДИНАМИЧЕСКОЙ ЭКВИВАЛЕНТНОСТИ В ПЕРЕВОВЕДЕНИИ: ПРАГМАТИЧЕСКИЙ ИНВАРИАНТ. In *Будущее науки-2016* (pp. 311-315).

11. Hashimova, S. A., & Nasirova, S. A. (2021). FEATURES OF FORMING OF ANIMATED NOUNS WITH THE AFFIXES IN MODERN CHINESE LANGUAGE. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(04), 1-10.
12. Ashiralievich, V. A., & Vasilovna, M. K. (2020). The interactive means of learning oriental languages. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 9(3), 78-86.
13. Омонов, К. Ш. (2015). Типы деловых документов в истории старотюркского литературного языка. *Paradigmata poznani*, (3), 71-74.
14. Khalmurzaeva, N. T. (2021). CONTRAST DESCRIPTION OF JAPANESE AND CHINESE VERBAL COMMUNICATIVE BEHAVIOR. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES (2767-3758)*, 2(12), 170-176.
15. Насирова, С. А. (2020). Генезис общественно-политической терминологии китайского языка через призму истории китайской дипломатии. *Modern Oriental Studies*, 2(2), 22-33.
16. Хашимова, С. А. (2022). О НЕКОТОРЫХ ОСОБЕННОСТЯХ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОГО АСПЕКТА КОММУНИКАЦИИ (НА ПРИМЕРЕ КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА). *SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 1(1), 85-91.
17. СА Насирова, СА Хашимова, ГШ Рихсиева. Влияние политической системы Китая на формирование общественно-политической терминологии. In Ответственный редактор, 162,0